

2025-yil, oktabr 17(63)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



1938-yil 4-oktabr kuni
o'zbek xalqining eng
oldi ma'rifatparvarlari,
ziyolilari, olimlari va
davlat arboblari
hukm o'qildi va ularning
aksariyati otib tashlandi.
Vatan va millat uchun
jon fido qilgan o'zbek
xalqining buyuk
farzandlari xotirasi
oldida bosh egaylik.

Firuz MURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
firuzamj1984@gmail.com



“HARBIY QASAMYOD” MATNINING LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada harbiy qasamyod matnining tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili berilgan. Nutqiy-kompozitsion tuzilishi, leksik va uslubiy xususiyatlari o'rganilib, uning ijtimoiy-ma'naviy va kommunikativ ahamiyati ta'kidlangan. Tadqiqot harbiy qasamyodning rasmiy va madaniy funksiyalarini yoritadi hamda uning vatanparvarlik nutqidagi o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *harbiy qasamyod, nutqiy-kompozitsion tuzilish, leksik-semantik xususiyatlar, kommunikativ funksiyalar, vatanparvarlik nutqi, barqaror iboralar.*

Аннотация: в статье проведён лингвистический анализ текста военной присяги. Рассмотрены её речевая композиция, лексические и стилистические особенности, а также подчеркнута её социально-нравственная и коммуникативная значимость. Исследование освещает официальные и культурные функции военной присяги и её роль в патриотической речи.

Ключевые слова: *военная присяга, речевая композиция, лексико-семантические особенности, коммуникативные функции, патриотическая речь, устойчивые выражения.*

Annotation: this article provides a linguistic analysis of the military oath text. It examines its speech composition, lexical and stylistic features, and emphasizes its socio-moral and communicative significance. The study highlights the official and cultural functions of the military oath and its role in patriotic discourse.

Key words: *military oath, speech composition, lexical-semantic features, communicative functions, patriotic discourse, fixed expressions.*

Harbiy vatanparvarlik nutqi ijtimoiy-siyosiy notiqlikning muhim va badiiy-ma'naviy jihatdan boy ko'rinishi hisoblanib, yosh avlodni Vatanga sadoqat, jasorat va burchni sharaf bilan ado etish ruhida tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, harbiy xizmat jarayonida Vatanga muhabbat va uni himoya qilish tuyg'usini shakllantirish, jangovar an'analarni davom ettirish, komandirga itoatkorlik va jangovar birodarlikka sodiqlik kabi qadriyatlarni mustahkamlashda harbiy qasamyod alohida ahamiyatga ega. Harbiy qasamyod askarning ona yurt oldidagi burchini tantanali ravishda bayon qilishi va ushbu burchga sodiqlikni va'da qilishi bilan harbiy vatanparvarlik nutqining eng muhim va ta'sirchan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Soha leksik tizimlarini lingvistik jihatdan tadqiq etishda, ayniqsa huquqshunoslik, tibbiyot, harbiy va diniy sohalarga oid matnlar tarkibida alohida o'rin tutuvchi qasamyod matnlari o'ziga xos kompozitsion tuzilishi, qat'iy shakli, ma'lum leksik qoliplari va barqaror iboralar bilan ajralib turadi. Bu turdagi

matnlar maxsus nutq turlariga kirib, ularda rasmiy-uslubiy norma, tantanavor ohang va an'anaviy frazeologik birliklar ko'p uchraydi. Qasamyod matni nafaqat rasmiy hujjat sifatida, balki shaxsiy mas'uliyat va axloqiy majburiyatni mustahkamlovchi til birliklari tizimi sifatida ham e'tirof etiladi.

Shu o'rinda qasamyod haqida to'xtalib o'tsak. Qasamyod – arabcha “qasam so'zlarini aytmoq” birikmasining qisqargan shakli bo'lib, 1) qat'iy va'da, ont 2) sodiqlik haqidagi rasmiy va'da, qasam ma'nolarini ifodalaydi. Mazkur so'zning ishlatilish doirasi keng bo'lib, u nafaqat diniy yoki huquqiy sohalarida, balki kundalik nutqda ham uchraydi. Ammo funksional-uslubiy jihatdan tahlil qilinganda, qasamyod atamasi ko'proq rasmiy-uslubiy kontekstlarda, xususan, harbiy va tibbiyot sohalarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayotimizda, so'zlashuv uslubida *qasam ichmoq* birikmasi biroz keskinlik kasb etadi. Biroq harbiy va tibbiyot sohalarida haqida gap ketganda, qasamyod qilish shu sohaning o'ta mas'uliyatligini, faqat ulargagina xos bo'lgan burchga sadoqatning ulug'ligini ko'rsatadi.



Tibbiyot sohasida Gippokrat qasamyodi shifokor kasbining tarixiy va axloqiy negizini tashkil etadi. Ushbu qasamyod, birinchi navbatda, inson salomatligi va hayoti oldidagi yuksak javobgarlikni ifodalaydi. U shifokorning kasbiy faoliyatida insonparvarlik, halollik, fidoyilik, bemorga xolis yondashuv, tibbiy sir saqlash kabi tamoyillarni belgilaydi. Gippokrat qasamyodi shifokor va jamiyat o'rtasidagi axloqiy shartnoma vazifasini bajarib, tibbiy faoliyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlovchi normativ-nutqiy hujjat sifatida qaraladi.

Harbiy sohadagi qasamyod esa, ya'ni Vatanga sadoqat qasamyodi, harbiy xizmatchining yurt, millat va davlat oldidagi burchini ado etishga bo'lgan qat'iy majburiyatini bayon etadi. Ushbu qasamyod harbiy intizom, fidoyilik, buyruqlarga so'zsiz bo'ysunish, Vatan mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish kabi asosiy prinsiplarni qamrab oladi. Bu yerda asosiy e'tibor shaxsiy emas, balki jamoaviy mas'uliyat, fuqarolik burchi va davlatga sodiqlik tamoyillariga qaratilgan.

1992-yil **O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 648-sonli qarori** bilan "Harbiy qasamyod to'g'risida"gi qonun qabul qilingan edi. 2002-yil **12-dekabr**dagi PQ-436-sonli qarorga asosan, "Harbiy qasamyod"- "Vatanga qasamyod" nomi bilan o'zgartirildi. Bu esa Vatan himoyachilari oldidagi mas'uliyat, burch o'ta muhimligini anglatadi va Vatan himoyasi uchun doim shay bo'lishni taqozo

etadi. Mazkur ikki istilohning qo'llanilishi va mazmun jihatidan o'zaro farqlanishi tabiiy ravishda qiziqish va izoh talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, "harbiy qasamyod" va "Vatanga qasamyod" atamaları bir qarashda sinonimik ifodalar bo'lib tuyulsa-da, ularning qo'llanish konteksti, semantik yuklamasi va maqsadga muvofiqligi jihatidan farqlar mavjud. Shu boisdan, qaysi atama maqsadga muvofiq va dolzarb ekani masalasini ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish zarur.

"Harbiy qasamyod" – tarkibida soha nomi (harbiy) mavjud bo'lib, bu atama qasamyodning kim tomonidan (harbiy xizmatchilar) va qanday kontekstda bajarilishini ochiq belgilaydi. Bu atama hujjatlar, qonunlar, nizomlarda qo'llanishi qulay bo'lgan, rasmiylik darajasi yuqori, neytral atama sifatida aniq bir soha, ya'ni harbiy xizmatga kirayotgan shaxsning o'z zimmasiga oladigan xizmat burchi, intizomi, jangovar vazifalar va harbiy nizom talablariga sodiqligini bildiradi. Bu qasamyodning mazmuni va majburiyati harbiy xizmat doirasida belgilangan.

"Vatanga qasamyod" esa badiiy, publitsistik yoki tantanavor nutqlarda emotsional-ta'sirchanlikni ifodalash uchun ishlatilib, unda kengroq ma'no – shaxsning Vatanga muhabbati, sadoqati va uni himoya qilishga shayligi tantanali ifodalanadi. Bunda harbiy xizmat talablaridan tashqari, milliy qadriyat, fuqarolik burchi va ma'naviy mas'uliyat ham mujassam. Shu o'rinda "Vatanga qasamyod" matnini keltirishni joiz topdik.

Vatanga qasamyod

“Men (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman.

Men O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat‘iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo‘lishga qasamyod qilaman.

So‘nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun davlat manfaatlarini va mustaqilligining himoyachisi bo‘lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqimning nafratiga muhtalo bo‘lay.

Vatanga qasamyod o‘zining nutqiy-kompozitsion tuzilishi jihatidan kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘lib, har bir jumla va ibora askarning davlat, xalq va ajdodlar ruhi oldidagi sadoqatini aks ettiradi. Bu yerda har bir so‘z va ifoda nutq uslubi talablariga mos ravishda qat‘iy tanlangan bo‘lib, ularni o‘zgartirish, almashtirish yoki kontekstdan chiqarib qo‘yish imkonsizdir. Chunki bu matnning har bir jumlasini axloqiy-ma‘naviy va ijtimoiy-huquqiy majburiyat yuklaydi.

Jumladan, *“xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lish”, “so‘zsiz bajarishga”, “qat‘iy rioya qilish”, “halol, jasur va sergak jangchi bo‘lish”* kabi iboralar qasamyod matniga xos bo‘lgan ruhiy-axloqiy barqaror birliklar sifatida xizmat qiladi. Ular oddiy semantik mazmun bilan emas, balki harbiy xizmatga bo‘lgan daxldorlikni va sadoqatni yuksak emotsional-ohangda ifodalaydi. Shuningdek, *“so‘nggi nafasim qolguncha”, “ajdodlarim ruhi oldida”, “jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun”* kabi iboralar perifrastik vositalari orqali bevosita sadoqat, fidoyilik va vatanparvarlikni kuchaytiruvchi badiiy-ramziy ifodalarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, *“jonajon O‘zbekiston”, “ajdodlar ruhi oldida qasamyod”* kabi birikmalar muqaddaslik, tarixiylik va ruhiy-ma‘naviy merosga bog‘lanib, oddiy vazifani emas, balki yuksak ma‘naviy missiyani anglatadi.

Yoki: *“So‘nggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabr-toqat bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.”* – jumlasida ona Vatan, sadoqat, farzandlik burchi, ajdodlar ruhi kabi konseptual birliklar orqali askarning yuksak burch va mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi obrazli va ta’sirchan bayon etiladi. Qasamyod matnining xulosa qismida esa *“muhtalo bo‘lmoq”* iborasidan foydalaniladi. Bu so‘z ibtidoiy ma’noda qarg‘ish mazmunini anglatganda, Vatanga qasamyod matnida u askarning qasamyodga xiyonat qilgani taqdirida xalq nafrati va qonun jazosi kabi jiddiy oqibatlariga duch kelishini bildiruvchi ramziy ogohlantiruv vazifasini bajaradi: *“Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqimning nafratiga muhtalo bo‘lay.”*

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, harbiy qasamyod matni nutqiy-kompozitsion tuzilishi, leksik-semantik tarkibi va uslubiy xususiyatlari bilan harbiy vatanparvarlikni ifodalovchi eng yuqori darajadagi normativ va tantanali nutq shakli sifatida ajralib turadi. Ushbu matnda qo‘llangan qat‘iy, aniq va barqaror leksik birliklar kommunikativ maqsadni samarali ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qasamyodning qat‘iy shakli va o‘ziga xos kompozitsion tuzilishi nutq uslubiining normativlik va rasmiylik tamoyillarini ta’minlaydi, bu esa uning funksional mustahkamligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibidagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni.2017.10 yanv.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlari. –Toshkent, 2007.
3. Aripova A. Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari. –Toshkent, 2007. 143b.
4. Gafurov B. Saf tayyorgarligi uslubi. – Toshkent: Sharq, 2005.240-b.
5. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent: Sahhof, 2021.210-b.
6. Odilov Y. O‘zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya. –Toshkent: Tafakkur, 2015.
7. Rasulov R., Husanov N., Mo‘yidinov Q. Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati. – Toshkent, 2006. 200-b.
8. Rasulov R., Narzieva M. Leksikologiyani o‘rganamiz. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 23 b.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент, 2020. –Б. 256.

Maftuna SATTOROVA. MILLIY G'URUR TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	122
Dilnoza RAKHIMOVA. RUS VA CHET EL ADABIYOTSHUNOSLIGIDA JANR POETIKASIGA OID ILMIY ASARLAR.....	125
Zamiraxon TUXTABAYEVA. XX ASR FEMINISTIK HARAKATLARINING LINGVISTIK JARAYONLARGA TA'SIRI	128
Firuza MURODOVA. "HARBIY QASAMYOD" MATNINING LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI	131
Nafruza AZIZOVA. FRAZELOGIZMLARNING TARIXIY VA SEMANTIK SHAKLLANISHI	134
Diyora MAMANAZAROVA. IQTISODIY MATNLARDA METAFORIK TERMINLARNING TARJIMASI	138
Sevinch SUYUNQULOVA. SO'ZLARDA SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINI O'QITISHDA GRAMMATIK JADVALLARNING O'RNI.....	142
Nazokatxon MUQIMJONOVA. MUROSA KONSEPTINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	145
Mohinur USMONOVA. LINGVISTIK EKSPERTIZA – AMALIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHI SIFATIDA.....	148
Shaxobiddin MUSAYEV. DAVLAT TILIGA DOIR MAVZULARNI YORITISHDA AXBORIY JANRLARDAN FOYDALANISH MASALALARI	151
Malohat JABBOROVA. O'ZBEK ADABIYOTIDA KOSMONIMLARNING METAFORIK-RAMZIY FUNKSIYALARI HAMDA POETIK STRUKTURALARI	153
Yusufbek XOLDOROV. O'ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI	155
Shohistaxon DADABAYEVA. ADABIY ASAR TAHLILIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI PRAGMATIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	158
Kozimxon ASROROV. NASX YOZUVINING SHAKLLANISH TARIXI VA TARAQQIYOTI	161
Nargiza YULANOVA. AKADEMIK YOZUV FANI – MUTAXASSISNING AKADEMIK SAVODXONLIGI ASOSI SIFATIDA.....	163
Mohinur JUMAYEVA. DIALOGIK NUTQNING ETNIK JIHATDAN XOSLANISHI	166
Oqila SATTOROVA. TARJIMADA MILLIY IDENTIKLIK.....	169
Zebuniso ABDUXOLIQOVA. TARJIMA ASARLARGA BADIY XRONOTOP TALQINI.....	172

Nodirabegim OLIMOVA. PEDAGOGIK HAMKORLIKNING MOHIYATI VA TAMOYILLARI HAMDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNING TIZIMLI TAHLILI.....	175
O'g'iloy O'ROLOVA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA MANTIQUIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODLARI (SOCRATIC QUESTIONING ASOSIDA)	178
Maftuna ZIYAQULOVA. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK TAMOYILLARI	181
Munira ESHTO'XTAROVA. SURXONDARYO INNOVATSION MARKAZIGA XOS IZOGLOSSALAR TAHLILI	183
Dildora OXBUTAYEVA. SHE'RIYATDA LIRIK "MEN" MUAMMOSI.....	186
Malika SUYUNOVA. HAMZA LIRIKASIDA XALQ BADIY TILI XUSUSIYATLARINING SEMIOTIK TAHLILI	190
Gulchiroy EGAMBERDIYEVA. OYDIN HOJIYEVA IJODIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISH OMILLARI	193
Sohibaxon NE'MATULLAYEVA. LUQMON BO'RIXONNING "IMOMI MOTRUDIY" ROMANIDA MILLIY QADRIYATLAR VA FOLKLOR UNSURLARINING UYG'UNLIGI	196
Osiyo XOSHIMOVA. RUSTAM MIRVOHID LIRIKASIDA PEYZAJNING RUHIYAT BILAN UYG'UNLIGI	198
O'g'iloy AHMADOVA. TOHIR MALIKNING "ALVIDO BOLALIK" ASARIDA BOLALIK OLAMI VA IJTIMOY-MA'NAVIY KONSEPSIYALAR.....	201
Sadoqatxon KAMOLOVA. ABDULLA QAHHORNING "SAROB" ROMANIDA GALLYUTSINATSIYA HODISASI MOHIYATI.....	203
Farizaxon TOHIROVA. "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XAMSA NAVISLIKDA TUTGAN O'RNI.....	205
Gulchiroy TURDALIYEVA. ADABIYOTSHUNOSLIKDA MUALLIF OBRAZI TUSHUNCHASINING TARIXIYLIGI	207
Madina FAYZULLAYEVA. XITOIY TILIDA INSON FIKRI VA HIS-TUYG'USINI IFODALOVCHI GASTRONOMIK METAFORALAR TAHLILI	209
Moxiraxon QUTBIDDINOVA. KOREYS TILI BILAN BOG'LIQ INTERFERENSIYA	212
Roza TURDIYEVA. ZOONIMLARNING UMUMIY VA MILLIY O'ZIGA XOSLIKLARI: O'ZBEK, QORAQALPOQ VA INGLIZ MAQOLLARIDA AKS ETISHI	215